

FIRIBGARLIK JINOYATI TUSHUNCHASI, UNING SALBIY OQIBATLARI

*O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi
universiteti magistratura tinglovchisi Mirzaraximov
Zohirjon Ochilovich*

Annotatsiya: maqolada firibgarlik jinoyati tushunchasi, uning ayrim o'ziga xos jihatlari xususida umumiy tavsif berilgan. Bundan tashqari, firibgarlik jinoyati tarkibi elementlari tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: firibgarlik, o'zganing mulki, talon-toraj qilish, aldash, ishonchni suiiste'mol qilish, faol aldash, nafaol aldash.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkka tajovuz qilish bilan bog'liq huquqbuzarliklar orasida o'zganing mulkini firibgarlik yo'li bilan talon-toraj qilish tariqasidagi jinoyatlar o'sishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Firibgarlik o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan qonunga xilof ravishda va tekin qo'lga kiritishda ifodalanib, buning ta'sirida mulkdor mulkning boshqa egasi yoki vakolatli organ mulkni yoki unga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga beradi, yoinki ushbu mulk yoki unga bo'lgan huquq boshqa shaxs tomonidan olib qo'yilishiga imkoniyat beradi.

Firibgarlikda aldash deganda, aybdor tomonidan, bila turib, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yolg'on ma'lumotlar xabar qilinishi yoki ish holati bo'yicha mulkdor, mulkning boshqa egasiga ma'lum qilinishi lozim bo'lgan haqiqiy faktlarni yashirish yoxud bunday shaxslarni yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etilgan harakatlar tushuniladi.

Firibgarlikda yolg'on ma'lumotlarga jabrlanuvchini yanglishtirishga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday holatlar, jumladan, yuridik fakt va voqealar, mulkning sifati, narxi, aybdorning shaxsi, uning vakolati, niyati taalluqli bo'lishi mumkin.

Firibgarlikda jabrlanuvchini yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etiladigan harakatlar jumlasiga, masalan, bitim yoki to'lov predmetini soxtalashtirish, qimor va

tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni o'ynash chog'ida aldov usullarini qo'llash va h.k. kiradi.

Firibgarlikda aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish mulkni yoki unga bo'lgan huquqni aybdor mulkdorligi yoki egaligiga ixtiyoriy ravishda beradigan aqli raso shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lishi shart. Aybdor tomonidan, bila turib, aqli noraso shaxsni yoki voqelik mohiyatini anglash qobiliyatiga ega bo'lmagan ko'zi ojizligi, ruhiy jihatdan norasoligi, alkogol, giyohvandlik vositasi, ularning analoglari yoki psixotrop modda ta'sirida og'ir darajada mastligi tufayli shaxsni aldash va undan mulkini olish firibgarlik tariqasida emas, balki o'g'irlik sifatida kvalifikatsiya qilinadi, chunki bunday hollarda shaxs mulk uning egaligidan chiqib ketayotganligini anglamaydi.

Mulkni egallashga qaratilgan firibgarlik, mazkur mulk aybdor yoki boshqa shaxslarning g'ayriqonuniy egaligiga o'tgan va ular undan xohlagan tarzda foydalanish yoki tasarruf etish real imkoniyatiga ega bo'lgan paytdan tugallangan deb topiladi. Qonunga ko'ra, shaxs bankdagi pul mablag'larini ular uning bankdagi hisob varaqasiga kelib tushgan (o'tkazilgan) paytdan boshlab real tasarruf qilish imkoniyatiga ega bo'lganligi tufayli, jinoyat bu mablag'lar ularni mablag' egasi hisob varaqasidan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan olgan shaxsning yoki boshqa shaxsning bankdagi hisob varaqasiga o'tkazilgan paytdan tugallangan deb topiladi.

O'zganing mulkiga bo'lgan huquqni egallashga qaratilgan firibgarlik, aybdorda o'zganing mulkiga egalik qilish yoki tasarruf etish uchun yuridik jihatdan tasdiqlangan imkoniyat paydo bo'lgan paytdan tugallangan hisoblanadi.

Agar shaxs o'zganing mulkini yoki unga bo'lgan huquqni mazkur mulk yoki huquq unga berilishi sharti bilan bog'liq majburiyatlarni bajarmaslik niyatida olgan yoki egallagan bo'lsa, qilmish aybdorda o'zganing mulkini yoki unga bo'lgan huquqni qo'lga kiritishga nisbatan qasd faqat o'zganing mulki yoki unga bo'lgan huquq qo'lga kiritilgunga qadar paydo bo'lgan holdagina firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. O'zganing mulkini talon-toraj qilishga qaratilgan qasd mavjudligi to'g'risida, jumladan, aybdor tomonidan soxta hujjat yoki kafolat xatlaridan foydalanish, qarz mavjudligi yoki mulk garov ostidaligi to'g'risidagi ma'lumotni yashirish, bitimda taraflardan biri sifatida ishtirok etishi

uchun soxta korxona tuzilishi, kredit mablag'laridan maqsadga zid foydalanish yoxud ularni naqdlashtirish kabilar guvohlik berishi mumkin. Qayd etilgan holatlar o'z o'zidan shaxsni firibgarlik sodir etishda aybdor deb topish uchun asos bo'lmaydi, shu tufayli, shaxsning o'z majburiyatlarini bila turib bajarish niyati bo'lmaganligi har bir muayyan holda ishning barcha holatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Agar o'zganing mulkini egallashga nisbatan qasd aybdorda mulk qabul qilingandan keyin yuzaga kelgan bo'lsa, shaxsning harakatlari firibgarlik tarkibini tashkil etmaydi va muayyan holatlarni inobatga olgan holda o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toraj qilish sifatida baholanadi.

Agar shaxs o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini uni ijro etish jarayonida ayrim ob'ektiv sabablarga ko'ra (masalan, mulkiy nochorligi, shartnoma tuzishda taraflar uchun asos bo'lgan vaziyatning jiddiy o'zgarishi, og'ir kasalligi, favqulodda holat tufayli) bajara olmasa yoki o'zganing mulkini egallashga nisbatan qasd mavjudligini isbotlashning imkoni bo'lmasa, bunday holatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan nizo sifatida baholanib, fuqarolik, iqtisodiy sud ishi yurituv tartibida hal etiladi.

"Firibgarlik jinoyati" - iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar jumlasiga kirib, jinoyat kodeksining 168-moddasida ushbu jinoyatga ta'rif berilgan.

Unga ko'ra firibgarlik, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqini qo'lga kiritishdir.

Demak, o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini yuqorida ko'rsatilgan ikki usulni qo'llab, tekin qo'lga kiritgan, 16 yoshga to'lgan aqli raso har qanday shaxs firibgarlik jinoyatini sodir etgan shaxs sifatida huquqni muxofaza qiluvchi idoralar tomonidan jinoiy ta'qibga uchrashi mumkin.

Bunda, jinoyat ishi qo'zg'atish uchun asos bo'luvchi zarar summasi oz miqdordan, ya'ni eng kam oylik ish haqining 30 barobaridan ko'p bo'lishi kerak. Bugungi kunda bu miqdor 5.167.200 so'mni tashkil etadi.

Agar firibgardan jismoniy shaxs jabrlangan bo'lsa, jinoyat ishi qo'zg'atish uchun talon-toraj qilingan mulk summasi ahamiyatga ega emas.



Endi aldash va ishonchni suiste'mol qilish tushunchalariga kelsak. Aldash deganda aybdor tomonidan jabrlanuvchining mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqlarini qo'lga kiritish maqsadida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yolg'on ma'lumotlardan foydalanish yoki mulk egasi bilishi lozim bo'lgan haqiqiy faktlarni yashirish tushuniladi. Masalan, aybdor avtosalonida ishlamas-da, mashina olib berishni va'da beradi, jabrlanuvchini o'zining gaplariga ishon tirish maqsadida soxta shartnoma yoki boshqa hujjatlarni ko'rsatadi.

Ishonchni suiiste'mol qilish — aybdorning mulk egasi bilan o'rtasidagi ishonchli munosabatlaridan g'arazli maqsadlarda foydalanishdir. Ishonchga turli holatlar, masalan, aybdor shaxsning xizmat mavqei yoki uning shaxsiy yoki qarindoshlik munosabatlari sabab bo'lishi mumkin. Masalan, qo'shnisini mehnat migratsiyasi bilan shug'ullanuvchi tashkilotda ishlashini bilgan fuqaro chet elga ishga yuborishga yordam so'rab murojaat qiladi. Garchi qo'shnisida bunday vakolat bo'lmas-da, u ishonchni suiiste'mol qilib, chet elga yubora olishini aytib, uning pul mablag'larini qo'lga kiritadi.

So'nggi yillarda firibgarlik jinoyatining umumiy jinoyatchilikdagi salmog'i ortib borayotgani sababli 2016 yil 26 dekabrda qonun bilan Jinoyat kodeksining 168-moddasidagi javobgarlik og'irlashtirildi. Shuningdek, Oliy sud plenumining firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risidagi qarori yangitdan ishlab chiqilib, qabul qilindi.

JKning 168-moddasi 4 qismdan iborat bo'lib, 1-qismida 50-100 baravar jarima, 2 yilgacha axloq tuzatish yoki 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ozodlikdan maxrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

2-qismida ancha miqdorda, bir guruh shaxslar yoki kompyuter texnikasidan foydalanib sodir etilgan firibgarlik uchun 100-300 jarima, 3 yilgacha axloq tuzatish yoki 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

3-qismida ko'p miqdorda, takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan, xizmat mavqeidan foydalanib sodir etilgan firibgarlik uchun 300-400 jarima, 2-3 yil axloq tuzatish yoki 5 yildan 8 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

4-qismida juda ko'p miqdorda, o'ta xavfli retsidivist tomonidan, uyushgan guruh yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan firibgarlik uchun 400-600 jarima, yoki 8 yildan 10 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

Firibgarlik o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan haq to'lamay egallashda ifodalanib, buning ta'sirida mulk egasi yoki boshqa shaxs yoxud vakolatli hokimiyat organi mulkni yoki unga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga beradi, yoki ushbu mulk yoki unga bo'lgan huquq boshqa shaxs tomonidan olib qo'yilishiga imkoniyat beradi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi dispozitsiyasiga muvofiq firibgarlikda aldash deganda, aybdor tomonidan, bila turib, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yolg'on ma'lumotlar xabar qilinishi yoki ish holati bo'yicha mulk egasi yoki boshqa shaxsga ma'lum qilinishi lozim bo'lgan haqiqiy faktlarni yashirish yohud mulk egasi yoki boshqa shaxsni yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etilgan harakatlar tushuniladi. Firibgarlikda yolg'on ma'lumotlarga jabrlanuvchini yanglishtirishga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday holatlar, jumladan, yuridik fakt va voqealar, mulkning sifati, narhi, aybdorning shaxsi, uning vakolati, niyati (masalan, aybdor shaxs o'zini mansabdor shaxs yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi sifatida ko'rsatishi) taalluqli bo'lishi mumkin.

Firibgarlikda jabrlanuvchini yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etiladigan harakatlar jumlasiga, masalan, bitim yoki to'lov predmetini soxtalashtirish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni o'ynash chog'ida aldov usullarini qo'llash va h.k. kiradi. Firibgarlikda ishonchni suiiste'mol qilish deganda, aybdor tomonidan mulk egasi yoki mulkni uchinchi shaxslarga berib yuborish to'g'risida qaror qabul qilishga vakolatli bo'lgan boshqa shaxslar bilan bo'lgan ishonchli munosabatlardan g'arazli maqsadlarda foydalanishi tushunilishi lozim. Ishonchga turli holatlar, masalan, aybdor shaxsning xizmat mavqei yoki uning jabrlanuvchi bilan shaxsiy yoki qarindosh-urug'lik munosabatlari sabab bo'lishi mumkin.

Firibgarlikda aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish mulkni yoki unga bo'lgan huquqni aybdor mulkdorligi yoki egaligiga ixtiyoriy ravishda beradigan aqli raso shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lishi shart. Aybdor tomonidan, bila turib, aqli noraso shaxsni yoki

voqelik mohiyatini anglash qobiliyatiga ega bo'lmagan (masalan, o'ta yoshligi, ruhiy jihatdan norasoligi, alkogol, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda ta'sirida og'ir darajada mastligi tufayli) shaxsni aldash va undan mulkni olish firibgarlik tariqasida emas, balki o'g'irlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim, chunki bunday hollarda shaxs mulk uning egaligidan chiqib ketayotganligini anglamaydi.

Mulkni egallashga qaratilgan firibgarlik, mazkur mulk aybdor yoki boshqa shaxslarning g'ayriqonuniy egaligiga o'tgan va ular undan xohlagan tarzda foydalanish yoki tasarruf etish real imkoniyatiga ega bo'lgan paytdan tugallangan deb topiladi. Qonunga ko'ra, shaxs bankdagi pul mablag'larini ular uning bankdagi hisob varaqasiga kelib tushgan (o'tkazilgan) paytdan boshlab real tasarruf qilish imkoniyatiga ega bo'lganligi tufayli, jinoyat bu mablag'lar ularni mablag' egasi hisob varaqasidan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan olgan shaxsning yoki boshqa shaxsning bankdagi hisob varaqasiga o'tkazilgan paytdan tugallangan deb topish lozim.

O'zganing mulkiga bo'lgan huquqni egallashga qaratilgan firibgarlik aybdorda o'zganing mulkiga egalik qilish yoki tasarruf etish uchun yuridik jihatdan tasdiqlangan imkoniyat paydo bo'lgan paytdan (masalan, ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqi yoki qonunga muvofiq ro'yxatga olinishi shart bo'lgan boshqa mulkka nisbatan huquq ro'yxatga olingan paytdan; shartnoma tuzilgan vaqtdan; mulkka nisbatan shaxsning huquqi tan olingan sud qarori kuchga kirgan kundan; vakolatli davlat organi aybdorda yoki boshqa shaxslarda mulkka nisbatan egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish uchun asoslar mavjudligi to'g'risida qaror qabul qilgan kundan) tugallangan hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 66 bet (529 бет).

2. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Жиноий ҳаракатлар оқибаида етказилган моддий зарарни қоплаш масаласига доир суд амалиёти



тўғрисида»ги 1998 йил 11 сентябрь 21-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси
Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. Биринчи жилд. – Т., 2007. – Б. 172

